



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadriddin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Хо'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
Rahmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li	
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	



INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

Jiyanov Laziz Najimovich
Buxoro davlat universiteti

ANNOTATSIYA. Infratuzilma investitsiyalarining aholi farovonligiga ta'sirini baholashning nazariy-uslubiy asoslari tizimlashtirilgan. Infratuzilmaning iqtisodiy mazmuni, investitsiyalarning aholi farovonligiga ta'sir mexanizmlari, shuningdek, baholashning asosiy yondashuvlari — farovonlik iqtisodiyoti (Welfare Economics), Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) metodologiyasi hamda Propensity Score Matching (PSM) usuli ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida transport, energetika va ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda farovonlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik 2015–2024-yillar uchun shakllantirilgan panel ma'lumotlar asosida aniqlangan. Tadqiqot natijalari infratuzilma investitsiyalarining aholi farovonligiga ta'siri hududlar kesimida bir xil emasligini, shuningdek, shaharlashgan va qishloq hududlari o'rtasida multiplikativ samara darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: infratuzilma investitsiyalari, aholi farovonligi, Inson taraqqiyoti indeksi, hududiy tafovutlar, panel ma'lumotlar, Propensity Score Matching, O'zbekiston.

ABSTRACT. The theoretical and methodological foundations for assessing the impact of infrastructure investments on population welfare are systematised. The economic content of infrastructure, the mechanisms through which investments influence welfare, and the principal assessment approaches, including Welfare Economics, the Human Development Index (HDI) methodology, and the Propensity Score Matching (PSM) method, are analysed. Based on panel data covering 14 regions of Uzbekistan for the period 2015–2024, the relationship between investments in transport, energy, and social infrastructure and population welfare indicators is identified. The findings indicate that the impact of infrastructure investments on welfare varies across regions and that significant differences in multiplicative effects exist between urban and rural areas.

Keywords: infrastructure investments, population welfare, Human Development Index, regional disparities, panel data, Propensity Score Matching, Uzbekistan.

АННОТАЦИЯ. Систематизированы теоретико-методологические основы оценки влияния инфраструктурных инвестиций на благосостояние населения. Проанализированы экономическое содержание инфраструктуры, механизмы воздействия инвестиций на уровень благосостояния, а также основные подходы к оценке, включая экономику благосостояния (Welfare Economics), методологию Индекса человеческого развития (HDI) и метод сопоставления по склонности (Propensity Score Matching, PSM). На основе панельных данных по 14 регионам Узбекистана за 2015–2024-годы выявлена взаимосвязь между инвестициями в транспортную, энергетическую и социальную инфраструктуру и показателями благосостояния населения. Результаты исследования свидетельствуют о неравномерности влияния инфраструктурных инвестиций в региональном разрезе, а также о наличии существенных различий в мультипликативном эффекте между городскими и сельскими территориями.

Ключевые слова: инфраструктурные инвестиции, благосостояние населения, Индекс человеческого развития, региональные различия, панельные данные, метод Propensity Score Matching, Узбекистан.

KIRISH

Infratuzilma investitsiyalari iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini ta'minlashning strategik omili sifatida jahon iqtisodiyot fanida alohida o'rin tutadi. Nobel mukofoti sohibi Amartya Sen [1] ta'kidlaganidek, farovonlik nafaqat daromad darajasi, balki insonning real imkoniyatlari (capabilities) majmui, ya'ni yashash shart-sharoitlari, infratuzilmaga kirish imkoniyati, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Transport yo'llari, elektr energiyasi, suv ta'minoti va ijtimoiy infratuzilma obyektlari aholining ish o'rinlariga, bozorlarga hamda davlat xizmatlariga kirish imkoniyatlarini belgilaydi [2]. Jahon banki ma'lumotlariga



ko'ra [3], infratuzilma investitsiyalarini YalMning 1 foiziga oshirish uzoq muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1,5–2,0 foiz punktga tezlashtirishi mumkin. Biroq iqtisodiy o'sish va farovonlik o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham bevosita va mutanosib bo'lavermaydi. Investitsiyalarning farovonlikka ta'siri infratuzilma turi, hududiy sharoitlar, aholi guruhlari va institutsional muhit xususiyatlariga qarab farqlanadi [4].

“Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026” [5] doirasida infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. 2019–2024-yillarda transport infratuzilmasiga 42,6 trln so'm, energetika sohasiga 31,4 trln so'm va ijtimoiy infratuzilmaga 28,7 trln so'm investitsiyalar yo'naltirilgan [7]. Shu bilan birga, mazkur investitsiyalarning aholi farovonligiga hududiy ta'sirini baholashga oid ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda hali keng rivojlanmagan. Mavzuning dolzarbligi Toshkent shahri va Surxondaryo viloyati o'rtasidagi aholi jon boshiga YalM ko'rsatkichi farqi 3,8 barobarni tashkil etishi [8] hamda infratuzilma investitsiyalarining aholi farovonligiga ta'sirini hududlar kesimida baholash zarurati bilan izohlanadi.

Maqolaning maqsadi infratuzilma investitsiyalarining aholi farovonligiga ta'sirini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini tizimlashtirish va O'zbekiston hududlari misolida uning hududiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: (1) infratuzilma va farovonlik tushunchalarining iqtisodiy mazmunini ochib berish; (2) baholashning nazariy yondashuvlarini tizimlashtirish; (3) O'zbekiston hududlari kesimida panel ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazish; (4) hududiy tafovutlarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Infratuzilma tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. P. Rozenshteyn-Rodan [9] uni “ijtimoiy kapital” deb atagan bo'lsa, A. Hirshman [10] infratuzilmani iqtisodiy rivojlanishning “asosiy sharti” (*precondition*) sifatida ta'riflagan. Zamonaviy yondashuvga ko'ra (Calderon va Serven, 2008) [11], infratuzilma xususiy ishlab chiqarish va iste'mol uchun xizmatlar ko'rsatishni ta'minlovchi fizik, tashkiliy va institutsional tizimlar majmuini anglatadi.

Infratuzilma investitsiyalarining farovonlikka ta'sirini baholashda to'rtta asosiy nazariy yo'nalish ajratiladi.

Birinchi yo'nalish — farovonlik iqtisodiyoti (*Welfare Economics*) nazariyasidir. Pigu [12] tomonidan asos solingan ushbu nazariyaga ko'ra, infratuzilma tashqi ijobiy samaralar (*positive externalities*) orqali ijtimoiy nafillik funksiyasini oshiradi. Narx mexanizmi orqali to'liq aks etmaydigan ijtimoiy foydani yaratishda davlat investitsiyalari muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi yo'nalish — imkoniyatlar yondashuvi (*Capability Approach*) hisoblanadi. A. Sen [1] va M. Nussbaum [13] tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuvga ko'ra, farovonlik resurslar yoki daromad hajmi bilan emas, balki insonning real imkoniyatlari, ya'ni nimaga qodirligi bilan o'lchanadi. Infratuzilma obyektlari (yo'llar, elektr energiyasi va suv ta'minoti tizimlari) mazkur imkoniyatlarni kengaytiradi hamda ta'lim olish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish va mobillik imkoniyatlarini oshiradi.

Uchinchi yo'nalish — hududiy iqtisodiyot va aglomeratsiya nazariyasidir. P. Krugman [14] va M. Fujita [15] tadqiqotlariga asoslangan ushbu nazariya infratuzilma investitsiyalarining hududiy samarasini “yadro–chekka” (*core–periphery*) modeli orqali izohlaydi. Unga ko'ra, yirik shaharlar (yadro hududlar) infratuzilmadan yuqori aglomeratsiya samarasini oladi, chekka hududlarda esa ushbu samara nisbatan past bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, infratuzilma bilan kam ta'minlangan hududlarda investitsiyalarning chegaraviy samarasi yuqori bo'lish ehtimoli ham mavjud.

To'rtinchi yo'nalish — endogen o'sish nazariyasidir. Barro [4], Romer va Lukas tadqiqotlariga ko'ra, infratuzilma ishlab chiqarish funksiyasida mustaqil omil (*public capital, Kg*) sifatida ishtirok etadi hamda inson kapitalining rivojlanishi orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval

Infratuzilma investitsiyalarining farovonlikka ta'sirini baholashning nazariy yondashuvlari¹

Yondashuv	Asosiy tamoyil	Asosiy vakillar	Baholash ko'rsatkichlari
Farovonlik iqtisodiyoti	Ijtimoiy nafillikni maksimalashtirish, tashqi ijobiy samaralar	Pigu, Bergson, Samuelson	Xarajat–foйда tahlili, aholi jon boshiga YalM
Imkoniyatlar yondashuvi	Farovonlik = real imkoniyatlar kengligi	A. Sen, M. Nussbaum, BMTD	ITI, ko'p o'lchamli kambag'allik indeksi
Hududiy iqtisodiyot	Aglomeratsiya, yadro–chekka modeli, masofa samarasi	Krugman, Fujita, Venables	Hududiy multiplikator, ishlab chiqaruvchanlik tafovuti
Endogen o'sish nazariyasi	Infratuzilma — Kg ishlab chiqarish omili sifatida	Barro, Romer, Lukas	Iqtisodiy o'sish sur'ati, inson kapitali indeksi

1 Manba: adabiyotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, infratuzilma investitsiyalarining aholi farovonligiga ta'sirini baholashda yagona umumqabul qilingan metodologiya mavjud emas. Har bir yondashuv mazkur masalaning muayyan jihatini yoritadi, biroq hududiy xususiyatlarni kompleks baholash uchun ularni o'zaro integratsiyalash zarur. Shu sababli tadqiqotda Inson taraqqiyoti indeksi metodologiyasi hamda Propensity Score Matching (PSM) usulini birlashtirgan kompleks yondashuv qo'llanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda metodlar majmuasidan foydalanildi: (1) Fixed Effects panel ma'lumotlar ekonometrikasi; (2) Propensity Score Matching (PSM) usuli; (3) hududiy klaster tahlili; (4) inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarini integral baholash metodi. Infratuzilma investitsiyalarining sababiy ta'sirini baholash maqsadida Propensity Score Matching (PSM) [19] usuli qo'llanildi. "Davolash" guruhi sifatida infratuzilma investitsiyalari hajmi YaHMga nisbatan 4,5 foizdan yuqori bo'lgan hududlar, "nazorat" guruhi sifatida esa ushbu ko'rsatkich 4,5 foizdan past bo'lgan hududlar tanlandi. Propensity skor logistik regressiya modeli yordamida hisoblandi. Natijalarning barqarorligini tekshirish maqsadida Kernel Matching (bandwidth = 0,06) va Nearest Neighbour Matching (k = 4) usullari asosida olingan natijalar o'zaro qiyoslandi. Hududlar shaharlashuv darajasiga ko'ra ikki klasterga ajratildi: (A) yuqori shaharlashuv darajasiga ega hududlar — Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand, Farg'ona va Namangan viloyatlari; (B) nisbatan past shaharlashuv darajasiga ega hududlar — qolgan 9 ta hudud. Mazkur tasniflash infratuzilma investitsiyalarining hududiy differensial ta'sirini yanada aniqroq baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Infratuzilma investitsiyalari dinamikasi. 2-jadvalda O'zbekiston hududlari kesimida infratuzilma investitsiyalari va ITI ko'rsatkichlari keltirilgan.

2-jadval.
Infratuzilma investitsiyalari va ITI ko'rsatkichlari (O'zbekiston hududlari bo'yicha, 2024-yil)²

Hudud	TI (ming so'm/jon boshiga)	EI (ming so'm/jon boshiga)	II (ming so'm/jon boshiga)	ITI (2024)	ITI o'sishi, 2015–2024 (b.p.)
Toshkent shahri	1 842	1 124	2 316	0,892	+0,068
Toshkent viloyati	1 284	896	1 482	0,841	+0,062
Samarqand	864	624	1 048	0,796	+0,058
Farg'ona	748	542	924	0,782	+0,054
Andijon	612	486	842	0,774	+0,051
Namangan	598	462	786	0,768	+0,049
Buxoro	724	612	864	0,761	+0,047
Navoiy	842	1 284	682	0,756	+0,045
Xorazm	486	388	624	0,741	+0,042
Qashqadaryo	624	484	712	0,738	+0,041
Jizzax	412	324	486	0,718	+0,038
Sirdaryo	364	286	428	0,712	+0,036
Surxondaryo	386	312	524	0,706	+0,034
Qoraqalpog'iston Respublikasi	528	418	612	0,698	+0,031
O'zbekiston bo'yicha o'rtacha	736	589	881	0,763	+0,047

2-jadval ma'lumotlari infratuzilma investitsiyalarining hududlar kesimida notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi. Toshkent shahrida aholi jon boshiga transport investitsiyalari hajmi (1 842 ming so'm) Sirdaryo viloyatiga (364 ming so'm) nisbatan 5,1 baravar yuqori. ITI ko'rsatkichi bo'yicha Toshkent shahri (0,892) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,698) o'rtasidagi farq 0,194 punktni tashkil etadi, bu esa hududlararo tafovutlarning sezilarli ekanligini ko'rsatadi.

Ekonometrik tahlil natijalari. Fixed Effects panel regressiyasi natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi [16], BMT TD hisobotlari [18] asosida muallif hisob-kitoblari.



3-jadval.

Panel regressiyasi natijalari (bog'liq o'zgaruvchi: ITI; Fixed Effects modeli)³

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	St. xato	t-statistika	p-qiyamat	95% ishonch oralig'i
TI (transport investitsiyasi)	0,0284***	0,0062	4,58	0,000	[0,016; 0,041]
EI (energetika investitsiyasi)	0,0196***	0,0048	4,08	0,000	[0,010; 0,029]
II (ijtimoiy infratuzilma investitsiyasi)	0,0412***	0,0078	5,28	0,000	[0,026; 0,057]
YaRPjb (log)	0,1138***	0,0214	5,32	0,000	[0,072; 0,156]
Shaharlashuv darajasi	0,0068***	0,0018	3,78	0,000	[0,003; 0,010]
Bandlik darajasi	0,0042**	0,0019	2,21	0,028	[0,000; 0,008]
Konstanta	0,4218***	0,0486	8,68	0,000	[0,326; 0,518]

Izoh: R^2 (within) = 0,814; $F = 48,62$ ($p = 0,000$); $N = 140$ (14 ta hudud \times 10 yil); *** $p < 0,01$; ** $p < 0,05$.

3-jadval natijalari barcha uch turdagi infratuzilma investitsiyalari ITIga statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Eng yuqori samara ijtimoiy infratuzilma investitsiyalarida kuzatiladi ($\beta = 0,0412$), ya'ni ijtimoiy infratuzilmaga aholi jon boshiga qo'shimcha 1 000 ming so'm investitsiya kiritilishi ITI ko'rsatkichini o'rtacha 0,041 punktga oshiradi. Transport infratuzilmasi ($\beta = 0,0284$) va energetika investitsiyalari ($\beta = 0,0196$) ham statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega. Modelning R^2 (within) ko'rsatkichi 0,814 ga teng bo'lib, ITI ichki variatsiyasining 81 foizdan ortig'i model tomonidan izohlanishini ko'rsatadi.

PSM tahlili natijalari. PSM tahlili "yuqori investitsiya" guruhida ITIning o'rtacha davolash samarasi (ATT) 0,058 punktini tashkil etishini ko'rsatdi ($SE = 0,014$; $p < 0,01$). Bu yuqori infratuzilma investitsiyalariga ega hududlar o'xshash xususiyatlarga ega past investitsiyali hududlarga nisbatan 10-yil davomida o'rtacha 0,058 punkt yuqori ITI natijasini namoyon etganligini anglatadi. Kernel Matching (ATT = 0,056) va Nearest Neighbour Matching ($k = 4$; ATT = 0,061) natijalari o'rtasidagi yaqinlik model natijalarining barqarorligini tasdiqlaydi.

Hududiy tafovutlar tahlili. Hududlar klasterlar kesimida tahlil qilinganda investitsiyalar samaradorligida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlandi.

4-jadval.

Infratuzilma investitsiyalarining ITIga hududiy differensial ta'siri⁴

Investitsiya turi	Umumiy β	A-klaster (yuqori shaharlashuv)	B-klaster (past shaharlashuv)	Tafvut (B-A)
Transport (TI)	0,0284***	0,0224**	0,0368***	+0,0144** (ahamiyatli)
Energetika (EI)	0,0196***	0,0148**	0,0284***	+0,0136** (ahamiyatli)
Ijtimoiy infratuzilma (II)	0,0412***	0,0382***	0,0462***	+0,0080 (statistik jihatdan ahamiyatsiz)
Agregat indeks	0,0298***	0,0248***	0,0376***	+0,0128*** (ahamiyatli)

Izoh: *** $p < 0,01$; ** $p < 0,05$. Klasterli standart xatolar qo'llanilgan.

4-jadval natijalaridan ko'rinadiki, shaharlashuv darajasi nisbatan past bo'lgan hududlar (B-klaster) transport va energetika investitsiyalaridan yuqoriroq ITI samarasi oladi (tafovut mos ravishda +0,0144 va +0,0136; $p < 0,05$). Mazkur holat hududiy iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan izohlanadi. Infratuzilma bilan nisbatan kam ta'minlangan hududlarda investitsiyalarning chegaraviy samarasi yuqoriroq bo'lishi mumkin, ya'ni "yetib olish samarasi" (*catch-up effect*) kuzatiladi. Ijtimoiy infratuzilma investitsiyalarining ta'sirida esa klasterlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmagan. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi investitsiyalar har ikkala klaster uchun ham ITIning muhim determinantlari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy adabiyotlar bilan mos keladi. Calderon va Serven (2008) [11] rivojlanayotgan mamlakatlar uchun transport investitsiyalari koeffitsiyentini 0,024–0,039 oralig'ida baholagan. Ushbu

3 Manba: muallif hisob-kitoblari, Stata 17.0 dasturi asosida.

4 Manba: muallif hisob-kitoblari.



tadqiqotda aniqlangan natija ($\beta = 0,028$) mazkur interval doirasiga mos keladi va metodologik yondashuvning ishonchligini tasdiqlaydi. Aschauer (1989) [3] AQSh ma'lumotlari asosida umumiy infratuzilma samarasini 0,39 darajasida baholagan. Biroq rivojlangan mamlakatlar ma'lumotlari bo'yicha infratuzilma komponentlari alohida ajratilmaganligi sababli natijalarni bevosita qiyoslash maqsadga muvofiq emas.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi hududiy differensial samaralarning aniqlanganligida namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlar bo'yicha mavjud tadqiqotlarda (Demetriades va Mamuneas, 2000) [6] infratuzilma investitsiyalari samaradorligidagi hududiy tafovutlar nisbatan cheklangan deb baholanadi. O'zbekiston misolida esa natijalar transport va energetika investitsiyalarining nisbatan kam rivojlangan hududlarda yuqoriroq chegaraviy samara berishini ko'rsatdi. Bu holat investitsiya siyosatini shakllantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Xususan, hududlararo tafovutlarni qisqartirish va umumiy farovonlikni oshirish maqsadida infratuzilma investitsiyalarini nisbatan kam rivojlangan hududlarga yo'naltirish yuqori natija berishi mumkin.

PSM tahlili natijalari ($ATT = 0,058$; $p < 0,01$) infratuzilma investitsiyalari va ITI o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, boyroq hududlarning ko'proq investitsiyalar jalb qilish ehtimoli bilan bog'liq endogenlik muammosi PSM usuli orqali qisman nazorat qilingan bo'lsa-da, uni yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyatlari mavjud. Kelgusidagi tadqiqotlarda instrumental o'zgaruvchilar usuli (IV/2SLS) qo'llanilishi sababiy ta'sirni yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Tadqiqot chegaralari. Birinchi cheklov shundaki, ITI ko'rsatkichi uchta subindeks (umr ko'rish davomiyligi, ta'lim va daromad) bilan cheklanadi hamda farovonlikning ekologiya, xavfsizlik va ijtimoiy kapital kabi ayrim jihatlarini qamrab olmaydi. Ikkinchi cheklov viloyatlar ichidagi tumanlar kesimida ma'lumotlarning mavjud emasligi sababli subhududiy tafovutlarni baholash imkoniyatining cheklanganligi bilan bog'liq. Uchinchi cheklov esa 10-yillik panel ma'lumotlari infratuzilma investitsiyalarining 15–20-yillik uzoq muddatli samaralarini to'liq baholash uchun yetarli bo'lmasligi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot doirasida infratuzilma investitsiyalarining aholi farovonligiga ta'sirini baholashning nazariy-uslubiy asoslari tizimlashtirildi hamda O'zbekistonning 14 ta hududi bo'yicha 2015–2024-yillarga oid panel ma'lumotlar asosida empirik tahlil amalga oshirildi.

Tahlil natijalari infratuzilma investitsiyalarining aholi farovonligiga ta'sirini izohlashda to'rtta asosiy nazariy yondashuv — farovonlik iqtisodiyoti, imkoniyatlar yondashuvi, hududiy iqtisodiyot va endogen o'sish nazariyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Hududiy darajada kompleks baholashni amalga oshirish uchun Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) metodologiyasi va Propensity Score Matching (PSM) usulini integratsiyalashgan holda qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Fixed Effects panel regressiyasi natijalari ijtimoiy infratuzilma investitsiyalarining ITIga ta'siri eng yuqori ekanligini ($\beta = 0,0412$; $p < 0,01$), transport infratuzilmasi investitsiyalarining ta'siri o'rtacha darajada ($\beta = 0,0284$), energetika investitsiyalarining ta'siri esa nisbatan pastroq ($\beta = 0,0196$) ekanligini tasdiqladi. Modelning izohlash darajasi yuqori bo'lib, ITI variatsiyasining 81 foizdan ortig'i izohlangan ($R^2 = 0,814$). Hududiy tahlil natijalari shaharlashuv darajasi nisbatan past bo'lgan hududlarda transport va energetika investitsiyalarining samaradorligi yuqoriroq ekanligini (tafovut $+0,014$; $p < 0,05$) ko'rsatdi. Mazkur natija chegaraviy samaradorlikning ortib borishi holatini tasdiqlaydi va infratuzilma investitsiyalarini nisbatan kam rivojlangan hududlarga yo'naltirish yuqori natija berishini ko'rsatadi. PSM tahlili natijalariga ko'ra, yuqori infratuzilma investitsiyalariga ega hududlarda ITIning o'rtacha davolash samarasi 0,058 punktni tashkil etgan ($ATT = 0,058$; $p < 0,01$).

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, infratuzilma investitsiyalarini nisbatan kam rivojlangan hududlar va tumanlarga maqsadli yo'naltirish hududlararo tafovutlarni kamaytirish hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy infratuzilma obyektlariga, xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga investitsiyalarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir, chunki ushbu yo'nalish ITIga eng yuqori ta'sir ko'rsatgan. Uchinchidan, investitsiyalar samaradorligini muntazam monitoring qilish maqsadida hududiy Inson taraqqiyoti indeksini yillik asosda hisoblash va e'lon qilish tizimini takomillashtirish zarur. To'rtinchidan, transport va energetika infratuzilmasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarni shaharlashuv darajasi nisbatan past hududlarda kengaytirish ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press. 366 p.
2. World Bank. (2023). *Infrastructure and Welfare: Evidence from Developing Countries*. WB Policy Research Working Paper No. 10412.



3. Aschauer, D. A. (1989). Is Public Expenditure Productive? *Journal of Monetary Economics*, 23(2), 177–200.
4. Barro, R. J. (1990). Government Spending in a Simple Model of Endogenous Growth. *Journal of Political Economy*, 98(5), S103–S125.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026*: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
6. Demetriades, P. O., & Mamuneas, T. P. (2000). Intertemporal Output and Employment Effects of Public Infrastructure Capital: Evidence from 12 OECD Economies. *The Economic Journal*, 110(465), 687–712.
7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). *Infratuzilma investitsiyalarining tarmoqlar kesimidagi tahlili*. Toshkent.
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). *O‘zbekiston raqamlarda*. Toshkent. Stat.uz.
9. Rosenstein-Rodan, P. (1943). Problems of Industrialisation of Eastern and South-Eastern Europe. *The Economic Journal*, 53(210/211), 202–211.
10. Hirschman, A. O. (1958). *The Strategy of Economic Development*. Yale University Press.
11. Calderon, C., & Serven, L. (2008). *Infrastructure and Economic Development in Sub-Saharan Africa*. WB Policy Research Working Paper No. 4712.
12. Pigou, A. C. (1920). *The Economics of Welfare*. London: Macmillan.
13. Nussbaum, M. (2011). *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press.
14. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. *Journal of Political Economy*, 99(3), 483–499.
15. Fujita, M., Krugman, P., & Venables, A. J. (1999). *The Spatial Economy*. MIT Press.
16. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). *O‘zbekiston raqamlarda*. Stat.uz.
17. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). *Hududlar kesimida infratuzilma investitsiyalarining taqsimoti: Monitoring hisoboti*. Toshkent.
18. UNDP Uzbekistan. (2024). *Human Development Report Uzbekistan 2024*. United Nations Development Programme.
19. Rosenbaum, P. R., & Rubin, D. B. (1983). The Central Role of the Propensity Score in Observational Studies for Causal Effects. *Biometrika*, 70(1), 41–55.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>